




ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>



THE FORMATION AND SOCIO-HISTORICAL SIGNIFICANCE OF NATIONAL LIBERATION COMMUNITIES IN THE LOWER AND MIDDLE ZARAFSHAN VALLEY IN THE LATE 19TH – FIRST HALF OF THE 20TH CENTURY

Erkinoy Davletbayevna Saparbayeva

Assistant of the Department of Social Humanities and Physical Education

Navoi State Mining and Technology University

E-mail: erkinoy saparboyeva03@gmail.com

Navoi Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Zarafshan Valley, national minorities, resettlement policy, Russian-speaking population, Tsarist Russia, migration, Samarkand region, Bukhara Emirate.

Received: 22.08.25

Accepted: 23.08.25

Published: 24.08.25

Abstract: This article examines the process of the formation of minority communities in the Lower and Middle Zarafshan Valley during the late 19th and early 20th centuries. It highlights the colonial policy of Tsarist Russia, the resettlement of Russian-speaking populations, and the socio-economic and cultural transformations in the region. Special attention is given to the changes in the ethnic composition of the local population and their role in the historical development of the Zarafshan Valley.

XIX ASR OXIRI – XX ASRNING BINICHI YARIMIDA O`UYI VA O`RTA ZARAFSHON VOHASIDA MILLIY OZCHILIKLAR JAMOALARINING SHAKLLANISHI VA IJTIMOIY-TARIXIY O`RNI

Erkinoy Davletbayevna Saparbayeva

“Ijtimoiy gumanitar fanlari va jismoniy tarbiya” kafedrasi assistenti

Navoiy davlat konchilik va texnologiya universiteti

E-mail: erkinoy saparboyeva03@gmail.com

Navoiy O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Zarafshan vohasi, milliy ozchiliklar, ko‘chirish siyosati, rusizabon aholi, Chor Rossiyasi, migratsiya, Samarqand oblasti, Buxoro amirligi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlarida Quyi va O’rta Zarafshan vohasida milliy ozchiliklar jamoalarining shakllanish jarayoni tahlil qilingan. Chor Rossiyasi mustamlakachilik siyosatining mintaqada olib borilishi, rusizabon aholining ko‘chirilishi, Zarafshan vohasining iqtisodiy, ijtimoiy

hamda madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar ochib berilgan. Shuningdek, mahalliy aholining milliy tarkibida yuz bergan o‘zgarishlar va ularning hududning tarixiy taraqqiyotidagi o‘rnini yoritib beriladi.

ФОРМИРОВАНИЕ И СОЦИАЛЬНО-ИСТОРИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНО-ОСВОБОДИТЕЛЬНЫХ СООБЩЕСТВ В НИЖНЕМ И СРЕДНЕМ ЗАРАФШАНСКОМ ОАЗИСЕ В КОНЦЕ XIX – ПЕРВОЙ ПОЛОВИНЕ XX ВЕКА

Эркиной Давлетбаевна Сапарбаева

Ассистент кафедры социальных гуманитарных наук и физического воспитания

Навоийский государственный горно-технологический университет

E-mail: erkinoy saparboyeva03@gmail.com

Навои Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Зарафшанская долина, национальные меньшинства, переселенческая политика, русскоязычное население, царская Россия, миграция, Самаркандская область, Бухарский эмират.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс формирования сообществ национальных меньшинств в Нижнем и Среднем Зарафшане во второй половине XIX – начале XX вв. Освещаются колониальная политика царской России, переселение русскоязычного населения, а также социально-экономические и культурные изменения, происходившие в Зарафшанской долине. Особое внимание уделено изменениям в национальном составе местного населения и их роли в историческом развитии региона.

Kirish

Quyi va O‘rta Zarafshon vohasining XIX asr ikkinchi yarmidan boshlab Chor Rossiysi ta’sir doirasiga kirishi mintaqaning siyosiy-iqtisodiy hayotida tub o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, Rossiya imperiyasining Turkiston o‘lkasida olib borgan ko‘chirish siyosati natijasida Zarafshon vodiysi hududida turli millatlardan iborat ozchiliklar jamoasi shakllandi. Ushbu jarayonlar nafaqat hududning demografik tarkibini, balki uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlarini ham belgilab berdi.

Adabiyotlar tahlili

Manbalarda qayd etilishicha, 1867-yildan boshlab rusizabon aholining Zarafshon vohasiga ko‘chirilishi imperator Aleksandr II topshirig‘i asosida amalga oshirilgan. Tadqiqotlarda bu jarayon shartli ravishda uch bosqichga ajratiladi:

1. Harbiylar va ularning oilalarining joylashtirilishi (1868–1890-yillar).

2. Rossiya markaziy va janubiy hududlaridan dehqonlarning ko‘chirilishi (1890–1906-yillar).

3. 1897-yildan keyingi ijtimoiy tabaqalar — savdogarlar, sanoatchilar, ishchilar va ziyyolilar kirib kelishi (XX asr boshlarida).

Statistik manbalar (1897-yilgi ro‘yxat, 1901-yilgi hisobotlar) Zarafshon vohasida ruslar, ukrainlar, beloruslar, yahudiylar, armanlar, nemislar, polyaklar, forslar va boshqa millat vakillari yashaganini ko‘rsatadi. Bu jarayon hududning sanoatlashuvi, savdo yo‘llarining rivojlanishi, temir yo‘l qurilishi va iqtisodiy tizimning shakllanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi.

Shuningdek, tarixiy adabiyotlarda 1917-yilgi inqilobdan keyingi siyosiy o‘zgarishlar, Buxoro Xalq Sovet Respublikasining tuzilishi va 1924-yilgi milliy-hududiy chegaralanish jarayonida Zarafshon vohasining yangi ma’muriy tuzilmalarga bo‘linishi alohida qayd etilgan.

Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko`satadiki, XIX asr oxiri – XX asrning birinchi yarimida O’ysi va O`rta Zarafshon vohasi milliy tarkibida sezilarli o‘zgarishlar yuz bergan. Avvalo bu davrida rusizabon aholi va boshqa millat vakillarining ko‘chirilishi natijasida voha hududida milliy ozchiliklar jamoalarini shakillana boshladи. Ular ko`proq shahar va shaharcha hududlarida joylashdi. Milliy ozchiliklar asosan hunarmandchilik, savdo, xizmat ko`rsatish texnik sohalarda faol ishtirok etgan. Bu esa hududning iqtisodiy rivojlanishi va mehnat bozoridagi ixtisoslashuv jarayonlariga ijobiy ta`sir ko`rsatdi. Shuning jamoalar mahalliy aholi bilan muayyan darajada integrasiya kirishgan bo`lsa-da, o`z milliy urf-odat va madaniy an`analarini asrab qolishga harakat qilgan. Bu holat voha madahiy muhitining ko`pqirrali va rang-barang bo`lishiga xizmat qildi va mahalliy aholi turmush tarziga ma`lum darajada ta`sir ko`rsatdi.

Tahlil va muhokama

Quyi va o‘rta Zarafshon vohasida milliy ozchiliklar jamoasining shakllanishi tarixi. Buxoro amirligining Chor Rossiyasining protektoratiga aylanishi bilan uning sharqiy hududlari hisoblangan Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bekliklari Turkiston general-gubernatorligining hududlariga aylantirildi. Ushbu hududlarda dastlab Samarqand va Kattaqo‘rg‘on bekliklarini o‘z ichiga olgan Zarafshon okrugi shakllantirilgan bo‘lsa, keyinchalik Panjikent va Zarafshon vodiysi shimolidagi tog‘li hududlar ham Zarafshon okrugiga qo‘shilgan. 1886-yil 12-iyunda “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risida Nizom”ning qabul qilinishi bilan Zarafshon okrugi Samarqand oblasti deb nomlana boshlangan.[1] Samarqand oblasti hududiga asosan Zarafshon daryosining Yuqori va O‘rta oqimida joylashgan hududlar kirgan. Qolaversa, ushbu oblastga Jizzax va Xo‘jand shaharlari hamda ularga tutashgan rayon hududlar ham kiritilgan.

Ruslarning Zarafshon daryosi va unga tutashgan hududlarga bo‘lgan qiziqishlari yuqori bo‘lganligi natijasida qisqa vaqt ichida usbu hududlarda Rossiya fuqarolarining posyolkalari

vujudga kela boshlagan. Fikrimizcha ruslarning ushbu hududlarga bo‘lgan qiziqishlarining asosiy sabablari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Avvalo, ruslar Zarafshon daryosini boshqarish bilan bog‘liq faoliyatni qo‘lga olishi bilan Buxoro amirligini jilovlab turish imkoniyatga ega bo‘lgan. Ikkinchidan, Buxoro amirligi davrida qazib olingan oltinning asosiy qismi ushbu hududlarda joylashgan konlarga to‘g‘ri kelgan va bu ularga iqtisodiy o‘sish imkoniyatini bergan.[2] Uchinchidan, Zarafshon daryosining o‘rta oqimi yerlarining unumдорligi yuqori bo‘lib, yangi yerkarni o‘zlashtirish uchun suv zahiralari yetarli darajada edi. To‘rtinchidan, ushbu hudud Markaziy Osiyo mintaqasi savdo yo‘llari kesishmasining chorrahasida joylashgan bo‘lib, Samarqand muhim savdo markazi sanalgan va karvon yo‘llarini boshqarish imkonini bergan.[3] Beshinchidan, ushbu hudud harbiy strategik jihatdan mintaqani boshqarish imkonini bera oladigan darajada qulaylikka ega bo‘lgan. Qolaversa, aynan Samarqand va unga tutashgan hududlarning Markaziy Osiyo tarixida muhim markazlardan biri bo‘lganligi Chor ma‘murlarining diqqat markazida edi.

O‘rta Osiyon bosib olinishi Chor Rossiyasi hukumati oldiga qator yangi vazifalarni yuklagan. Bu vazifalar mitaqani uzoq yillar o‘z qo‘lida saqlab qolishga aloqador edi. Shuning uchun avvalo boshqaruv tartiblarining asos zamiri bo‘lgan sadoqatli fuqarolarga va hukumatga tayanch bo‘la oladigan tarafdrorlarga ega bo‘lishi kerak edi. Mintaqqa aholisi bu borada ruslarga maslakdosh bo‘lishiga bir qator muammolar ulkan to‘siq qo‘yardi. Avvalo, etnik aholi ruslarni bosqinchi sifatida ko‘rsa, ikkinchidan, xalqlar o‘rtasidagi diniy tafovutning borligi ular bilan aloqalarni chigallashtirardi. Qolaversa, hali ham mintaqadagi hukmonron tabaqalar hokimiyat tizginini olishga bo‘lgan qiziqishlari so‘nmagan edi va doimiy ravishda xarbiy to‘qnashuvlar sodir bo‘lishi ehtimoli yuqori edi. Shu sababli yerli aholi bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish hamda ularga tayanib mintaqani boshqarishga intilish ko‘plan muammolarni keltirib chiqarishga asos bo‘ldi. Shularni inobatga olgan Chor hukumati rusizabon millatlarni mintaqaga ko‘chirishni asosiy maqsad qilib belgiladi va tegishli choralarni ko‘rishga kirishdi.[4]

Rusizabon aholini mitaqaga ko‘chirish siyosati Rossiya imperiyasining bu mintaqadagi boshqaruv nazoratni to‘liq qo‘lga olish istagini anglatar edi. Yangi yerkarni o‘zlashtirish niqobi ostida amalga oshirilgan bu harakarlar zamirida qurolli kuchlarni qo‘llab-quvvatlash va mintaqqa boshqaruvida keng imkoniyatlarga ega bo‘lish xohishi ufurib turardi. Shu sababli huquqiy me‘yoriy asoslari bo‘lmasligiga qaramasdan 1867-yildan boshlab rusizabon aholini “yangi yerlar”ga ko‘chirish shaxsan imperator Aleksandr II ning topshirig‘i va nazorati ostida harbiy vazirlik tomonidan amalga oshirildi [5].

Aholi migratsiyasining asosiy ko‘rinishlaridan biri hisoblangan ko‘chirish siyosatining Chor Rossiyasiga tegishli davrini shartli ravishda uch bosqichga ajratishni maqsadga muvofiq deb hisobladik. Ko‘chirish siyosatining ilk bosqichida asosan harbiylar va ularning oilalari, ularga

xizmat ko'rsatish tuzilmalarining ko'chirilishi kuzatildi. Ushbu bosqich doirasida asosan Chor Rossiyasi qo'shining asosini tashkil etuvchi rus-kazaklari Zarafshon vodiysi hududlariga kirib keldi. Bu jarayonlar 1868 yildan 1890-yillargacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi va manbalardagi mavjud ma'lumotlar tahliliga ko'ra ularning soni 6000 (rus-kazaklari) nafardan ortiq bo'lgan. Ammo, harbiylarni mintaqaga hududlariga joylashtirishi tarixning keyingi davrlarida ham muntazam amalga oshirilib turildi hamda ularning soni va salmog'i tinimsiz o'sib bordi. Jumladan, 1892 yilgi ma'lumotlarga ko'ra ularning 8000 dan ortig'i Yangi Buxoroga, 4600 nafari Kattaqo'rg'onda, 12000 nafardan ortig'i Samarqand va unga tutashgan hudularda joylashtirilgan edi.[6] Biroq, ko'chirib keltirilgan aholidan farqli o'laroq harbiy xizmatchilar harbiy istehkom va qo'rg'onlarga joylashtirilgan bo'lib, xizmat muddati tugashi yoki boshqa gornizonga ko'chishi bilan ularning Zarafshondagi faoliyati o'z nihoyasiga etgan [7]. Ikinchi bosqich ko'chirish siyosatining asosini tashkil etib, 1890-1906-yillar oralig'ida sodir bo'lgan. Rossiyaning markaziy va janubiy hududlaridagi dehqonlarning katta qismi yersiz hisoblanib, ularni yer bilan ta'minlash yangi bosib olingan yerlar hisobiga amalga oshirilgan. Jumladan, 1891-yilgi hisob kitoblariga ko'ra Turkiston general-gubernatorligining Samarqand oblastida bo'sh yerlar 375 ming desyetinani va suv zahiralari sug'orishi mumkin bo'lgan 170 ming desyatina yerlarning mayjudligi ushbu hududlarda qo'shimcha tarzda 15 ming xo'jalikni ko'chirish imkoniyati mavjudligini ko'rsatardi [8]. Chor Rossiyasining ko'chirish siyosati 3-bosqichining yakunlanishi bevosita 1897 yil yanvar oyida Sirdaryo, Farg'ona va Samarqand oblastlari ham ko'chirish uchun yopilganligi bilan izohlanadi. Xuddi shu davrga kelganda Samarqand oblastida ko'chirilganlarning soni 12759 nafarni tashkil etardi [9]. Diqqatni tortadigan jihat shundan iboratki ushbu davrdagi hisobotlarda aholining milliy mansubligiga ko'ra emas balki diniy mansubligiga ko'ra guruhlarga ajratish va hisobotlar tayyorlash tartibidan foydalanilgan. XIX asr oxirlaridagi manbalarga ko'ra yevropa millati vakillari provaslav, protestant, katolik, armanilar va yahudiylar kabi guruhlarga ajratilgan.

Ammo, 1897-yilda Chor Rossiyasida o'tkazilga Butunrossiya aholini ro'yxatga olish tadbirlarida tayyorlangan ma'lumotlarga ko'ra Samarqand uyezdining aholisining yevropa xalqlari qismiga tegishli ma'lumotlarda biroz farqlar seziladi. Masalan, 1897-yilgi aholini ro'yxatga olish hisobotlariga ko'ra aholining milliy tarkib quyidagicha berilgan:

T / R	Til yoki til guruhi	Erk ak	Ay ol	Umu miy	T / R	Til yoki til guruhi	Erk ak	Ayo i	Umu miy
1	Velekoruslar	536	29	8 294	9	Afg'onlar	162	113	275

2	Maloruslar	810	10 7	917	1 0	Yahudi ylar	714	465	1 179
3	Beloruslar	70	59	129	1 1	Totarlar	185	60	245
4	Polyaklar	102 2	75	1 097	1 2	Qirg'izlar	48	15	63
5	Nemislar	240	97	337	1 3	Sartlar	328	46	374
6	Armyanlar	194	34	228	1 4	O'zbeklar	1111 70	895 02	200 672
7	Forslar	817	38 0	1 197	1 5	Qashg'arlar	1917	153 4	3 451
8	Tojiklar	673 16	56 02 6	123 342	1 6	Boshqalar	290	107	397
Jami:							1906	151	342
							44	553	197

Turkiston general gubernatorligining 1901-yilgi hisobotlarida guberniyada 5 mingdan ko‘proq rusizabon yahudiy (Ashkenazi) istiqomat qilishi to‘g‘risida ma`lumotlar qayd etigan bo‘lib, 2,5 mingga yaqini Samarqand oblastida, 1,5 mingga yaqini Farg‘ona oblastida, har birida 350–400 kishi Toshkent va Verniyda yashagan. Bir necha yuz ashkenaz yahudiylari Buxoro xonligining rus aholi punktlarida, asosan, Yangi Chorjo‘yda, bir nechasi esa Xiva xonligida yashagan [10]. Rusizabon aholining Rossiyaning markaziy rayonlaridan Turkiston hududiga ommaviy ko‘chib kelib o‘rnashishiga imperator tomonidan 1903-yil 10-iyulda chiqarilgan “Qishloq va shahar aholisini Sirdaryo, Farg‘ona va Samarqand oblastlardagi davlat yerlariga ixtiyoriy ravishda ko‘chirish qoidalari to‘g‘risida”gi qarori asos bo‘lib xizmat qildi. Oradan ko‘p o‘tmay 1904-yil 6-iyunda dehqonlarni erkin ko‘chirishga ruxsat beruvchi “Ko‘chirish to‘g‘risida”gi qonun e’lon qilindi va 1906 yildan boshlab muhojirlar uchun temir yo‘l chiptalariga chegirmalar qo‘llanila boshlandi. Natija qisqa vaqt ichida Zarafshon vohasiga muhojirlarning yangi to‘lqini oqib kela boshladi.

Ko‘chirish siyosatining yangi bosqichini boshlab bergan bu jarayonlar natijasida savdogarlar, sanoatchilar, bankirlar, ishchilar, tibbiyat xodimlari, pedagoglar va boshqa ijtimoiy

soha vakillarining mintaqaga kirib kelganlishi avj oldi. Rusizabon aholi asosan Zarafshon vohasining yirik shaharlari sanalgan Samarcand, Kattaqo‘rg‘on va Yangi Kogonga ko‘chib keldilar hamda mintaqada sanoatning shakllanishida muhim orin tutdilar. Yevropa millati vakillari sanoatning paxta va pilla xom ashyosini tayyorlashga ixtisoslashgan korxonalarini olib kirishi bilan boshlangan ushbu jarayonlar keyinchalik, tog‘-kon, charm-poyafzal, to‘qimachilik va oziq-ovqat sanoatining shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi. Temir yo‘lning taraqqiyotida ham rusizabon millatlarning xizmatlari yuqori bo‘lib, Markaziy Osiyo mintaqasi uchun muhim bo‘lgan asosiy temir yo‘llarning qurilishida asosiy ishchi kuchi sifatida namoyon bo‘ldilar.

1917-yilda sodir bo‘lgan inqiloblar natijasida nafaqat Rossiya xalqlari, balkim, Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari, jumladan, Zarafshon vohasida istiqomat qilayotgan millatlarning shurida katta o‘zgarishlarning sodir bo‘lishiga olib keldi. Mahalliy aholida mustamlakachilarga qarshi kurashish jarayoni boshlangan bo‘lsa, rusizabon xalqlarning qarashlarida bolshevizm ruhi aks eta bordi. 1920-yilning avgust-sentyabr oylaridagi to‘qnashuvlar natijasida Buxoro amirligi tugatilib, uning o‘rniga BXSR tashkil topdi va Zarafshon mintaqasida Sovet hokimiyati o’rnatildi. 1924-yilning oktyabrida O‘zbekistonning tashkil etilishi bilan Zarafshon vodiysi Samarcand, Zarafshon va Buxoro kabi okruglarga bo‘lib yuborildi. Maqolaning 1924-1938-yillar olag‘idagi ma`lumotlarda Zarafshon vodiysi haqidagi umumiylar ma`lumotlar shu uch okrug hisobotlarining jamlanmasidan shakllantiriladi. o‘tgan asrning 30-yillarida Rossiyaning Markaziy va Janubiy qismlari, shuningdek, Qozog‘istonda sodir bo‘lgan dahshatli ocharchilik sharoitida ham Zarafshon vohasiga yevropa xalqlarining kirib kelishi bilan bog‘liq holatlar kuzatilib, bunda asosan slavyan xalqlarining mintaqaga kirib kelishi kuzatilgan. Shu sababdan Zarafshon vohasida istiqomat qilayotgan oz sonli millatlarning salmog‘i biroz oshib, ularning o‘lkadagi son jihatidan nufuzi bir oz yuqorilagan.

Samarqand oblasti statistika boshqarmasining 1920-yilgi ma`lumotlarida Samarcand shahrida armanlar 2356 (110) nafarni, Osiyo yahudiylari 7391 (27) nafarni, ruslar 13210 (884) nafarni, ukrainlar 2289 (331) nafarni, beloruslar 354 (55) nafarni, boshqa millatlar 4349 (249) nafarni tashkil etgan [11].

Xulosa

Quyi va O‘rtalarda Zarafshon vohasida milliy ozchiliklar jamoasining shakllanishi bevosita Chor Rossiyasi olib borgan ko‘chirish siyosati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan. Rusizabon aholi va boshqa yevropa millatlari vakillarining ko‘chib kelishi mintaqaning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutdi, lekin bu jarayon mahalliy aholi va hukmron tabaqalar o‘rtasida ijtimoiy ziddiyatlarni ham keltirib chiqardi. XX asr boshlariga kelib Zarafshon vohasi ko‘p millatli hududga aylangan bo‘lib, bu holat keyinchalik Sovet davri etnik siyosati uchun ham muhim asos bo‘lib xizmat qildi.

Foydalangan manbalar ba adabiyotlar ro`yxati:

1. Абашин С.Н., Арапов Д.Ю, Бекмаханова Н.Е. Центральная Азия в составе российской империи. Москва Новое литературное обозрение, 2008 – С. 96.
2. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв.М.:1975, с.-21-22; Рок-Тэн. Золотые прииски в Бухаре //Туркестанский сборник.-Т.543.-С.21-26.
3. Сайдкулов Т.С. Самарканд второе половине XIX-начале XX веков (из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины) //Учебное пособие Самарканд. 1970. - С.28; Алимджанов Б.А. Экономическая политика Российской империи в Туркестанском генерал-губернаторстве: вторая половина XXI - начало XX вв. Афтореферат на соис. учен. степ. канд. ист. наук. М. 2016. - С. 12
4. Рыбаковский Л.Л. – Теория трех стадий миграционного процесса. Москва. Издательство Юрайт, 2019. - С.153.
5. Бартенева И.В. Переселенческая политика Российской империи в Туркестане во второй половине XIX века // Вестник КРСУ. 2008. Том 8. № 7. - С. 64 (64-69)
6. Почекаев Р.Ю. Казачьи «мотивы» в военном деле Бухары и Хивы под российским протекторатом // Средневековые тюрко-татарские государства. 2016. № 8. -С. 206, Фомченко А. П. Русские поселения в Бухарском эмирате. Ташкент: Госиздат УзССР, 1958. – С. 78-80
7. O‘zbekiston Milliy Arxivi. I-1-fond. 17-ro‘yxat. 848-yig‘ma jild, 110-119 varoqlar;
8. Кауфман А.А. К вопросу о русской колонизации Туркестанского края : отчет члена Ученого комитета М-ва З. и Г.И.А.А. Кауфмана по командировке летом 1903 года / М.З. и Г.И., Департамент гос. земел. имуществ. - СПб. : Тип. В. Ф. Киршбаума, 1903. - [4], X, -С. 68-75. (205 с.)
9. Обзорь Самаркандской области за 1898 год. (Приложение к всеподаннейшему отчету Военного Губернатора). Самарканд. Типография Белобородова. 1900. Приложение № 8.
10. Замятин Д.Н. Русские в Центральной Азии во второй половине XIX века: стратегии презентации и интерпретации историко-географических образов границ // Восток. М., 2002. № 1. - С. 45–59.
11. Статистический справочник по Самаркандской области: [за 1920-1923 гг.] // Самарканд. обл. стат. бюро; под ред. К. И. Игнатьева. - Самарканд : Самарк. обл. исполн. комитет, 1924. - [2], VII, [1], 144 с. : табл. - Текст парал. рус., узбек. - С. 16-19.